

**Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash
shakllari**

O‘ktamova Maftuna Zafar qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali

Ijtimoiy ish yo‘nalishi talabasi

Eshnazarova Madina Ilhom qizi

Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali

Ijtimoiy ish yo‘nalishi talabasi

Ilmiy raxbar: Abbosova Maftuna Subxonovna

Raqamli texnologiyalar va iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi, P.H.D

Annotatsiya: *ushbu maqola yetim bolalar hamda qarovsiz qolgan bolalarni himoya qilish shakllari hamda qanday muassalarga joylashtirish tartiblari berilgan . Qarovsiz qolgan bolalarni davlat tomonidan rag‘batlantirish tartiblari ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *yetim bolalar , qarovsiz qolgan bolarlar, UNICEF, internat muassalar, SoS, patronat, homiylik, nomuqobil, layoqatsiz .*

Kirish

UNICEF tomonidan rasmiy ma‘lumotlarni global darajada o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo davlatlaridagi muassasalarda yashayotgan bolalar soni hamon yuqori bo‘lib qolmoqda - har 100ming boladan 666tasi. Bu dunyo miqyosidagi ko‘rsatkichdan – 100ming boladan 120tasi – besh barobar yuqoridir. 2016 yildagi rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda har 100ming boladan 255tasi internat muassasalarida tarbiyalani. Bu raqam mintaqadagi ko‘rsatkichdan past bo‘lsa-da, global ko‘rsatkichga nisbatan ancha yuqoridir. Ekspertlarning fikriga ko‘ra, internat shaklidagi muassaslardagi bolalar sonini qisqartirish muhimdir. Buning uchun bolaning oilasiga yordam berish yoki, zarur hollarda, muqobil oila vasiyiligini ta‘minlash kerak. O‘zbekiston

prezidentining yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori va tegishli reja hukumatning bolaning mehribon va g'amxo'r oila sharoitida o'sish huquqini ta'minlashga sodiqligini yaqqol namoyish etadi. Vasiylik va homiylik organlari ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni aniqlaydi, bunday bolalarni hisobga oladi va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan har bir holatga qarab, bolalarni joylashtirish shakllarini tanlaydi, shuningdek bundan buyon ularga ta'minot berish, ularni tarbiyalash va ularga ta'lim berish shart-sharoitlarini nazorat qilib boradi. Muassasalarning (maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim muassasalari, davolash muassasalari va boshqa muassasalarning), fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining mansabdor shaxslari va boshqa fuqarolar bolalar ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganligidan xabardor bo'lgach, 7 kunlik muddat ichida bu haqda bolalar haqiqatda turgan joydagi vasiylik va homiylik organlariga xabar berishlari shart. Yetim bola va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning uy-joyga bo'lgan huquqni ta'minlash jarayonlarida ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Bolalarni himoya qilish masalalari kotibiyati mas'ul organ hisoblanadi. Vasiylik va homiylik organi bunday ma'lumotlarni olgan kundan e'tiboran 3 kun ichida bolaning turmush sharoitini tekshirib chiqishi va bunda bolaning ota-ona yoki qarindoshlari qaramog'idan mahrum bo'lganligi aniqlansa, uni joylashtirish masalasi hal bo'lguniga qadar bolaning huquq va manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashi shart. Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joylar bilan ta'minlash.

1. Yetim bola va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning uy-joyga bo'lgan huquqini ta'minlash.

2. Uy-joyga muhtoj bo'lgan yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning hisobini yuritish.

3. Yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalar uchun uy-joylar ajratish.

4. Yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalar uchun ajratiladigan uy-joylarni xarid qilish.

5. Yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarga uy-joy berish

Ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolalarga beriladigan imtiyozlar beriladi.

“Mehribonlik” uyi va Bolalar shaharchalarining bitiruvchilari boʻlgan chin yetimlar, SOS – bolalar mahallalari va oilaviy bolalar uylari bitiruvchilari, shuningdek, yigirma besh yoshgacha boʻlgan vasiylikka, homiylikka yoki oilaga tarbiyaga olingan (patronat) yetim bolalarga oliy taʼlim muassasalariga oʻqishga kirish uchun qoʻshimcha ravishda bir foizgacha davlat granti asosida qabul kvotalari ajratiladi. Qoʻshimcha kvotalar oliy taʼlim muassasalari va taʼlim shakllari kesimida taqsimlanadi va abituriyent oʻzi tanlagan barcha oliy taʼlim muassasalarida (abituriyent tanlagan taʼlim shakli doirasida OTMga mazkur imtiyoz uchun qoʻshimcha kvota ajratilgan boʻlsa) imtiyoz doirasida tanlovda ishtirok etadi. Alohida ajratilgan kvotalar doirasida tanlovda qatnashib, talabalikka tavsiya etilmagan abituriyentlar toʻplagan ballari bilan oʻzlari tanlagan bakalavriat taʼlim yoʻnalishlarida umumiy tartibda ham tanlovda ishtirok etadilar. Shuningdek, toʻliq davlat taʼminotidagi shaxslar test sinovlarida ishtirok etish uchun undiriladigan toʻlovdan ozod etiladi.

Huquqiy asoslar:

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-apreldagi PQ-4296-son qarori

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi PQ-4319-son qarori

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi PQ-5216-son qaror.

Vasiylik — 14 yoshga toʻlmagan yetim bolalarni va ota-onasining qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomalaga

layoqatsiz deb topilgan fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli.

Homiylik — 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan yetim bolalarni va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni, shuningdek sud tomonidan muomala layoqati cheklangan fuqarolarni ularga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish, ularning mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida joylashtirishning huquqiy shakli. Sog'lig'ining holatiga ko'ra mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan va o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan voyaga etgan muomalaga layoqatli fuqarolarga bu shaxslarning iltimosiga ko'ra homiylik belgilanishi mumkin. Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs — o'ziga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilangan shaxs. Vasiylik yoki homiylik belgilanishiga muhtoj bo'lgan shaxslar — alohida g'amxo'rlikka, shuningdek o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishiga muhtoj bo'lgan etim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar, ota-onalik huquqidan mahrum etilmagan ota-onasi bo'lgan hamda bolalarning hayoti yoki sog'lig'iga bevosita tahdid tug'dirayotgan yoki ularning ta'minoti, tarbiya va ta'lim olishiga doir talablarga javob bermaydigan sharoitda yashayotgan bolalar, sog'lig'ining holatiga ko'ra homiylikka muhtoj bo'lgan voyaga yetgan muomalaga layoqatli fuqarolar, muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan fuqarolar.

Vasiy yoki homiy etib tayinlanishi mumkin bo'lmagan shaxslar:

-ota-onalik huquqidan mahrum etilgan yoki ota-onalik huquqlari cheklangan shaxslar;

-sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;

-sobiq farzandlikka oluvchilar, agar farzandlikka olish ularning o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi, ota-onalik huquqlarini suiiste'mol qilganligi, farzandlikka olinganlar bilan shafqatsiz munosabatda bo'lganligi, surunkali

alkogolizm yoki giyohvandlikka muhtalok bo'lganligi oqibatida bekor qilingan bo'lsa;

-o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi yoxud o'z huquqlarini suiiste'mol qilganligi uchun vasiy yoki homiy majburiyatlarini bajarishdan chetlashtirilgan shaxslar;

-qasddan sodir etgan jinoyati uchun ilgari hukm qilingan shaxslar;

-vasiy yoki homiy etib tayinlanishiga to'sqinlik qiladigan kasalliklarga chalingan shaxslar.

Ota-ona yashash joyida vaqtincha bo'lmaganda vasiylik yoki homiylik belgilash

Ota-ona yashash joyida vaqtincha bo'lmaganda, agar bola ular tomonidan 6 oydan ortiq muddatga qarindoshlarining yoki boshqa yaqin kishilarining vasiylikida yoki homiylikida va nazorati ostida qoldirilgan bo'lsa, mazkur shaxslarning bolaga nisbatan vasiylik yoki homiylik belgilanadi. Bunda vasiylik yoki homiylik, agar bu bolaning manfaatlari uchun zarur bo'lsa, belgilanadi. Vasiylik va homiylik organlarining vakolatlari, ularning vazifalari. Sudlar tomonidan bolalar tarbiyasi to'g'risidagi nizolarni ko'rib chiqishda vasiylik va homiylik organlarining ishtiroki. Vasiylik va homiylik organlarining tug'ilishni qayd qilishdagi vakolatlari. Vasiylik va homiylik organlarining bolalarni farzandlikka olish va oilaga tarbiyaga berish (patronat) bilan bog'liq masalalardagi vakolatlari. Vasiylik va homiylik organining voyaga etmaganlarni to'la muomalaga layoqatli deb e'lon qilish (emansipatsiya) bo'yicha vakolatlari. Tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari, tibbiyot birlashmalari, bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlarining vasiylik va homiylik sohasidagi faoliyati.

VASIYLIK VA HOMIYLIK SOHASIDAGI NAZORAT

Vasiylar va homiylarning majburiyatlari bajarilishi ustidan nazorat

Vasiylar va homiylarning majburiyatlari bajarilishi ustidan nazorat vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning yoxud vasiylarning yoki

homiylarning yashash joyidagi vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslar vasiyning yoki homiyning harakatlari (harakatsizligi) ustidan tegishli vasiylik va homiylik organiga yoxud sudga shikoyat qilishga haqli.

Vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxslarning hayotiga yoki sog'lig'iga bevosita tahdid tug'ilganligi to'g'risida, ularning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzilganligi haqida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan shaxslar bu haqda vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning haqiqatda turgan joyidagi vasiylik va homiylik organiga yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berishi shart. Bunday ma'lumotlarni olgan vasiylik va homiylik organlari hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir zarur choralar ko'rishi shart.

Vasiy va homiyning hisoboti.

Vasiy va homiy o'z majburiyatlarining bajarilishi to'g'risidagi hisobotni har yili o'ninchi yanvargacha vasiylik va homiylik organiga taqdim etadi. Vasiy yoki homiyning hisobotida quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi: vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsga tegishli bo'lgan va saqlash uchun topshirilgan mol-mulkning saqlanayotgan joyi va uning holati haqidagi ma'lumotlar; vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan vasiylik yoki homiylikdagi shaxsga tegishli mol-mulkning begonalashtirilishi haqidagi ma'lumotlar (shunday holatlar mavjud bo'lsa); mol-mulk, shu jumladan begonalashtirilgan mol-mulk evaziga sotib olingan mol-mulk to'g'risidagi ma'lumotlar; yil davomida vasiylik yoki homiylikdagi shaxs tomonidan olingan daromad to'g'risida, daromad manbai, vaqti va miqdori ko'rsatilgan ma'lumotlar; olingan daromadlar hisobiga vasiylik yoki homiylikdagi shaxsning ehtiyojlari uchun sarflangan mablag'lar to'g'risidagi ma'lumotlar; vasiylik va homiylik organining ruxsati bilan vasiylik yoki homiylikdagi shaxsning mol-mulki hisobidan qilingan xarajatlar haqidagi ma'lumotlar; vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsni tarbiyalash, unga ta'lim

berish, sogʻligʻini muhofaza qilish, huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida amalga oshirilgan ishlar haqidagi maʼlumotlar.

Vasiy va homiyning gʻayriqonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxs, davlat organlari va muassasalari, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari hamda vasiylikdagi yoki homiylikdagi shaxsning yashash joyidagi fuqarolar tomonidan tegishli vasiylik va homiylik organiga yoki sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Xulosa: bolalarni qarovsiz qoldirib ketish holatlar yurtimizda juda koʻplab uchrab turibdi ushu kabi holatlar takrorlanmasligi uchun qonunlar kiritishimiz lozim aks holda bolalar tirik yetim va qarovsiz jamiyatda norozi kayfiyatda ulgʻayishi mumkin bu albatta yurtimiz uchun qaygʻli maʼlumot boʻlib xizmat qiladi. Buning uchun shariy nigohni yoʻq qilishimiz kerak yolgʻiz onalik huquqini yarim yetim holati maʼlum boʻlganida ijozat bersak bu ham oʻz oʻrnida samarasini beradi degan umiddaman. Endilikda yangi ishlab chiqarilayotgan qarorlarimizga koʻp bolali boʻlishga ham cheklov qoʻyilsa Bolani boqa olmay koʻchaga tashab ketish holatlari kuzatilmassligi mavjud bolani maksimalni darajada ehtiyojlarini qoplashga yoʻl qoʻyiladi bu oilani farovonlik indeksini oshirishga xizmat qiladi .dunyoga kelgan har bir bola uchun ota-onalar javobgar boʻlishadiku shuning uchun har bir ota ona farzandlarini yaxshi sharoitlarda ulgʻayishi kafil hisoblanadi!

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. VASIYLIK va Homiylik 2013-yil 8-noyabr
2. Oʻzbekiston Yuridik ensiklopediyasi
3. E. Toʻxtamurodov “Bolalar uylari tarbiyalanuvchilari.”
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi PF-5215-sonli qarori.
5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi PF-5216-sonli qarori.